

## IQLIM O'ZGARISHI VA INSONIYAT KELAJAGI

**Ilmiy raxbar:** *Abdug'aniyev Javohirmirzo Davlatmirza o'g'li*

*Andijon Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti o'qituvchisi*

*[Javohirmirzo3732@gmail.com](mailto:Javohirmirzo3732@gmail.com)*

**Talaba:** *Nurdinova Ziyodaxon Baxtiyor qizi*

*Andijon Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti 1-bosqich talabasi*

*[ziyodaxonnuridinova@gmail.com](mailto:ziyodaxonnuridinova@gmail.com)*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada iqlim o'zgarishi muammosi va uning insoniyat kelajagiga ko'rsatadigan ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada iqlim o'zgarishining asosiy sabablari, xususan, antropogen omillar, issiqxona gazlari chiqindilarining ko'payishi hamda sanoatlashtirish jarayonining ekologiyaga salbiy ta'siri yoritilgan. Shuningdek, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va ekologik ongni shakllantirishning ahamiyati asoslab berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *iqlim o'zgarishi, global isish, ekologiya, issiqxona gazlari, barqaror rivojlanish, atrof-muhit.*

XXI asrda insoniyat duch kelayotgan eng dolzarb global muammolardan biri bu – iqlim o'zgarishidir. Iqlim o'zgarishi nafaqat tabiiy muhitga, balki inson salomatligi, iqtisodiyot, oziq-ovqat xavfsizligi va global barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, iqlim o'zgarishi butun olam uchun xavf tug'diradi. Mashhur iqlimshunos olim Jeyms Hansen iqlim o'zgarishi: "insoniyat kelajagini belgilovchi eng muhim ekologik muammo", deb ta'kidlagan. Shu sababli ushbu masalani ilmiy jihatdan o'rganish va unga qarshi choralar ko'rish bugungi kunning dolzarb vazifasidir [1].

Iqlim o'zgarishi – Yer atmosferasida harorat, yog'ingarchilik va shamol rejimlarining uzoq muddatli o'zgarishidir. Olimlarning fikriga ko'ra, so'nggi yuz yillikda Yerning o'rtacha harorati taxminan 1,1°C ga oshgan. Bu jarayon asosan antropogen omillari, ya'ni inson faoliyati bilan bog'liq. Asosiy sabablari quyidagilardan iborat: issiqxona gazlarining ko'payishi (karbonat anhidrid, metan, azot oksidi); sanoatlashtirish va urbanizatsiya; o'rmonlarning kesilishi; ko'mir, neft va gazdan haddan tashqari foydalanish. Bu nazariyani Nobel mukofoti sovrindori Svante Arrhenius hali XIX asr oxiridayoq karbonat anhidrid miqdorining ortishi global isishga olib kelishini ilmiy

asoslab bergan. Bugungi kunda bu fikrlar zamonaviy ilm-fan tomonidan to'liq tasdiqlanmoqda [2].

O'zbekiston hududida ham iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini yaqqol sezilmoqda. Mintaqaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yillik o'rtacha harorat so'nggi 50 yil ichida  $1,5^{\circ}\text{C}$  ga oshgan. Bu global o'rtacha ko'rsatkichdan yuqoridir. Eng og'ir ekologik muammo Orol dengizi fojiasi hisoblanadi. Orol dengizining qurishi natijasida 5 million gektar dengiz sathi yo'qolgan va atrofdagi hududlarda mikroiklim keskin o'zgargan. Orol dengizi hududida tuz bo'ronlari yuzaga kelmoqda va bu tuzli chang shamol bilan 500 km gacha masofaga tarqalmoqda [3]. Shuningdek, Sirdaryo va Amudaryo daryolarining suv sathi pasayib borayotganligi qishloq xo'jaligiga jiddiy zarar yetkazmoqda.

Iqlim o'zgarishi natijasida tabiiy ekotizimlar jiddiy zarar ko'rmoqda. Muzliklarning erishi, dengiz sathining ko'tarilishi, cho'llanish jarayonining tezlashuvi bunga yaqqol misoldir. Antarktida va Grenlandiya muzliklarining erishi natijasida dunyo okeani sathi ko'tarilib, ko'plab orol davlatlari va qirg'oq hududlari xavf ostida qolmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasida, xususan Tyan-Shan tog'larida muzliklarning 30 foizdan ortig'i so'nggi 50 yilda erigan. Bu esa mintaqada suv resurslari tanqisligiga olib kelmoqda. Butun dunyo bo'yicha har yili taxminan 12 million gektar o'rmon yo'qolmoqda, bu esa atmosferadan karbonat angidridni singdirish qobiliyatini pasaytirmoqda [4].

Iqlim o'zgarishi inson hayotining deyarli barcha sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Eng avvalo, inson salomatligi xavf ostida qolmoqda. Issiq to'lqinlar, toshqinlar, qurg'oqchilik va tabiiy ofatlar sonining ortishi kasalliklar tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligining hosildorligi kamaymoqda; ichimlik suvi tanqisligi kuchaymoqda; oziq-ovqat xavfsizligi izdan chiqmoqda; iqlim migratsiyasi yuzaga kelmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2030-2050 yillar orasida iqlim o'zgarishi yiliga qo'shimcha 250 000 kishining o'limiga sabab bo'lishi mumkin. Iqlim o'zgarishining sog'liqqa ta'siri butun dunyo bo'ylab seziladi, ammo nomutanosib ravishda kam ta'minlangan aholiga ta'sir qiladi. Bu esa aholi o'rtasida ziddiyatga sabab bo'ladi. Iqtisodchi olim Nikolas Stern iqlim o'zgarishini "global iqtisodiyot uchun eng katta xavf", deb baholagan [5]. Negaki, yuqorida aytib o'tganimizdek, hosildorlikning qisqarishi, toza ichimlik suvi yetishmovchiligi va oziq-ovqat xavfsizligi izdan chiqishi butun dunyo iqtisodiyotiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish xalqaro hamkorlikni talab etadi. Shu maqsadda bir qator xalqaro bitimlar qabul qilingan. Eng muhimlaridan biri – Parij iqlim kelishuvi bo'lib, u global haroratni oshishini  $2^{\circ}\text{C}$  dan past darajada

ushlab turishni maqsad qilgan. 2015-yilda 196 davlat tomonidan qabul qilingan bu kelishuv issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishni va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tishni nazarda tutadi [6].

O'zbekiston ham ushbu kelishuvga qo'shilgan va 2030 yilga qadar issiqxona gazlari chiqindilarini 35 foizga kamaytirish majburiyatini olgan. Buning uchun quyosh va shamol energiyasidan foydalanishni kengaytirish, energiya samaradorligini oshirish va yashil texnologiyalarni joriy etish rejalashtirilgan. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishning muhim vositasidir. Quyosh, shamol, gidroenergetika va bioenergetika an'anaviy yoqilg'i turlarining o'rnini bosishi mumkin. Hozirgi vaqtda dunyo energiya ishlab chiqarishining 29 foizi qayta tiklanuvchi manbalardan olinmoqda va bu ko'rsatkich yildan-yilga oshib bormoqda. O'zbekistonda ham bu yo'nalishda muhim ishlar amalga oshirilmoqda. 2019-2023 yillarda O'zbekistonda bir nechta yirik quyosh elektr stantsiyalari qurildi, jumladan, Samarqand, Navoiy va Jizzax viloyatlarida. Shamol energiyasi bo'yicha ham loyihalar amalga oshirilmoqda. Qoraqalpog'istonda shamol energetikasi potentsiali yuqori va bu yerda yirik shamol elektr stantsiyalari qurish rejalashtirilgan [7].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iqlim o'zgarishi bo'yicha muloqot atrof-muhit muammosi sifatida emas, balki sog'liq muammosi sifatida qaralsa, jamoatchilikni jalb qilish ehtimoli ko'proq. Chunki, inson atrof-muhitni o'z sog'lig'idek asramaydi xatto e'tibor ham bermaydi, aslida uning sog'lomligi shu atrof-muhitga bog'liq. Iqlim muammosini hal qilishda faqat davlatlar kurashishining o'zi yetmaydi, zero har bir shaxs ham ma'suldir. Bu yo'lda hamma birdek sidqidildan o'z yurti va eng avvalo sog'lig'i uchun kurashishi darkor. Har bir inson o'z hayotida oddiy ekologik qoidalarga rioya qilishi mumkin: energiyani tejash, chiqindilarni qayta ishlash, jamoat transportidan foydalanish, daraxtlar ekish va plastikdan foydalanishni kamaytirish. Shundagina, ekologik ongli turmush tarzi iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini kamaytirishga xizmat qiladi [8].

Ta'lim va axborot tarqatish ham iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishning muhim qismidir. Aholini ekologik muammolar haqida xabardor qilish, yoshlarni ekologik tarbiyalash va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash zarur. O'zbekiston maktablarida ekologiya fani o'qitiladi va talabalar ekologik loyihalar ustida ishlaydilar. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali ekologik ma'lumotlar tarqatilmoqda. Biroq, bu sohada hali ko'p ish qilish kerak. Ekologik ong jamiyatning barcha qatlamlariga singdirilishi va har bir fuqaro o'zini atrof-muhit uchun mas'ul his qilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, iqlim o'zgarishi – bu faqat ekologik muammo emas, balki insoniyat kelajagi va uning salomatligiga tahdid qiluvchi omildir. Agar bugun zarur

choralar ko‘rilmasa, kelajak avlodlar jiddiy ekologik va ijtimoiy muammolarga duch keladi. Shu sababli ilm-fan, texnologiya va xalqaro hamkorlik asosida iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish har bir insonning muhim vazifasidir. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun bu muammo ayniqsa dolzarbdir, chunki mintaqaviy ekologik muammolar global jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq. Mashhur olim Albert Eynshteyn aytganidek, "muammoni uni keltirib chiqargan tafakkur bilan hal qilib bo‘lmaydi". Demak, insoniyat ekologik ma’suliyatli fikrlashga o‘tishi lozim. Faqat shundagina barqaror va xavfsiz kelajakni ta’minlash mumkin bo‘ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. J. Hansen Climate Change and Global Warming. – 2018.
2. N. Stern The Economics of Climate Change. – 2007.
3. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. Milliy hisobot. – Toshkent, 2023.
4. IPCC Reports on Climate Change. – 2021.
5. E. Wilson Biodiversity and Climate. – 2019.
6. Paris Agreement on Climate Change. – Paris, 2015.
7. O‘zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish strategiyasi. – Toshkent, 2022.
8. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti. Iqlim o‘zgarishi va aholi salomatligi. – 2021.